

## Ayollarga ehtirom



### Ayollarga ehtirom

Ayollar va xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy manfaatdorligini oshirish, ularga har jabhada kumaklashish, ayniqsa, ularning madaniy xordiq chiqarishlariga munosib sharoit yaratib berish bo'yicha qilinayotgan ishlar e'tirofga loyiq.

Bugun So'x tumanidan 40 nafar "Ayollar daftari" da bo'lgan, ehtiyojmand, ijtimoiy kumakka muhtoj va kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan xotin-qizlarimiz Xorazm safariga jo'nab ketishdi.

Kuzatuv marosimida tuman hokimligi oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi va "Mahalla" xayriya jamoat fondi vakillari xotin-qizlarimizga oq yo'l tiladilar. Safaringiz bexatar bo'lsin, aziz va muhtarama ayollar va mo'nis onajonlar!

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-04-23 13:49:46